

Bayram shukronasi

Hammamizga tarixdan ma'lumki, biz buyuk ajdodlarning avlodlarimiz. Bizning shu darajaga erishgunimizga qadar ko'plab ota-bobolarimiz o'z jonlarini fido qilganlar. Hozirgi kunga kelib ularning fidokorona mehnatlari samarasini tarannum etuvchi ko'plab doston-u, asarlar dunyo yuzini ko'rgan.



Yurtimizda har yili 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni" bayrami katta shukuhda o'tkaziladi. Shunday munosabat bilan Institutimizning harbiy kafedrasida tahsil olayotgan talabalar hamda kafedra mudiri podpolkovnik Minlishev.R.Z. boshchiligidagi 2018-yilning 14-yanvar kuni "Vatanga qasamyod" haykali ostiga gulchambar qo'yish uchun "Qurolli kuchlar" muzeyiga tashrif buyurdilar. Monumentda tasvirlangan o'g'lon o'z zaminini asrash uchun yurtimiz bayrog'ini ushlagan holda qasamyod qilmoqda.



Bu esa bizning qalbimizdagagi vatanga bo'lgan muhabbat hissini yanada oshirdi. Gul qo'yish marosimi katta harbiycha ohanglar sadosida va ko'plab harbiylar ishtirokida bo'llib o'tdi. Biz shu yurtning farzandi ekanligimizdan faxrlanamiz!

Институт матбуот котиби: Раҳимбой Жуманиёзов